SHARQ TILLARIDAGI TARIXIY MANBALARNING TIL XUSUSIYATLARI

Muhabbat Samandarovna Hamidova
O‘zbekiston Milliy universiteti
Shohsanam Bahodir qizi Abdumuradova
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid sharq tillaridagi, ya’ni arabiy, eroniy va turkiy tillarda yaratilgan tarixiy manbalarning til xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, unda mualliflarining qo‘lyozma manbalarni yozishda qo‘llagan uslublari, ularning tarixiy jarayonlarni tasvirlashdagi o‘ziga xos yondashuvlari yoritib beriladi. Shuningdek, arab, fors va turkiy tillarning o‘zaro ta’siri, tarixiy manbalarda aks etgan tillararo aloqalar xususida so‘z yuritiladi. Maqolada sharq tillaridagi qo‘lyozmalarning til jihatidan o‘rganilishi manbashunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan qanchalik ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: sharq tillari, turkiy tillar, forsiy, arabiy tili, tarixiy manbalar, lingvistik tahlil, manbashunoslik tahlili, qiyosiy tahlil

LINGUISTIC FEATURES OF HISTORICAL SOURCES IN EASTERN LANGUAGES

Muhabbat Samandarovna Khamidova
National University of Uzbekistan
Shokhsanam Bahodir qizi Abdumuradova
Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract: This article analyzes the linguistic features of historical sources created in Eastern languages, namely Arabic, Iranian, and Turkic languages. It explores the formation and transformation of their linguistic characteristics and distinctive styles in connection with historical processes. Furthermore, the paper discusses the mutual influence of Arabic, Persian, and Turkic languages, as well as the interlingual interactions reflected in historical sources. The study highlights the importance of examining Eastern manuscripts from the perspectives of source studies and linguistics.

Keywords: Eastern languages, Turkic languages, Persian, Arabic language, historical sources, linguistic analysis, source analysis, comparative analysis

(cc) BY

KIRISH

Sharq tillarida (turkiy, arabiy va forsiy) yaratilgan qo‘lyozma yodgorliklarning til xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslik va manbashunoslik fanlari uchun muhim hisoblanadi. Chunki har bir yozma manba o‘zining leksik, morfologik, sintaksik va uslubiy jihatlari bilan o‘ziga xosdir. Bu jihatlar ularning ijtimoiy-tarixiy muhit bilan bog‘liq holda shakllanganini ko‘rsatadi. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga doir sharq tillaridagi manbadarning til xususiyatlarini tahlil qilish, ularning manbaviy ahamiyati, leksik va uslubiy o‘ziga xosligini ochib berish hamda tillararo ta’sir jarayonlarini ko‘rsatishdan iborat.

Maqolada Markaziy Osiyo Sharq sivilizatsiyasida kechgan ko‘p asrlik tarixiy jarayonlar, siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlar hamda madaniy taraqqiyotning markazi hisoblanadi. Bu hududlarda shakllangan tarixiy manbalar nafaqat davlatchilik tarixi, balki adabiyot, falsafa, diniy ta’limot va tilshunoslik sohalarida ham ulkan ahamiyatga ega. Aynan ushbu manbalar orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, savdo-madaniy munosabatlari va intellektual hayoti haqida to‘liqroq tasavvur hosil qilish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va madaniyati haqidagi bilimlarimiz ko‘p jihatdan sharq tillarida - arab, forsiy va turkiy tillarda yozilgan qo‘lyozma asarlarga suyanadi. Bu manbalar nafaqat tarixiy voqealarni bayon qiladi, balki davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhitini ham yoritib beradi. Maqolada arab, forsiy va turkiy tillarda yozilgan qator asarlarning ilmiy tavsifi, ularning til xususiyatlari va manbashunoslik ahamiyati keng tahlil qilinadi.

ARAB TILIDA YOZILGAN MANBALAR

At-Tabariyning «Tarix ar-rusul va-l-muluk» asari islom tarixining eng yirik manbalaridan biri hisoblanadi. “Tarixi Tabariy” islom sivilizatsiyasining ilk asrlari, payg‘ambarlar tarixi, Rasulullоh salallohi vassallam va uning sahobalar hayoti, Xulafoi Roshidin, Umaviylar va Abbasiylar halifaliklari haqida boy ma’lumot beradi. Bu esa, islom dini va musulmonlikning Markaziy Osiyo, xususan, o‘zbek xalqlari hayotiga ta’sirini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Asarda Movarounnahr va Xuroson haqidagi ma’lumotlar Movarounnahr, Xuroson, Samarqand, Buxoro, Marv, Balx kabi mintaqa shaharlari va u yerlarnig mahalliy aholisi bilan arablar o‘rtasida bo‘lgan harbiy to‘qnashuvlar, janglar, siyosiy va diniy jarayonlar haqida muhim ma’lumotlar bor. Bu ma’lumotlar o‘zbek tarixchilarining qadimgi va o‘rta asrlar tarixini yoritishida tayanch manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu asar arab tilida fus’ho uslubi yaratilgan, tarixiy voqealar xronologik asosda keltirilgan. Ya’ni, At-Tabariy rivoyatlarni zikr etishda isnod (naql zanjiri) tizimidan foydalangan. Bu uslub keyingi islom tarixchiligida keng tarqalgan. Keyinchalik forsiy va turkiy tillarda yaratilgan qo‘lyozma asarlar mualliflari ham ana shu uslubdan ilhomlangan. Masalan, Biruniy,

(cc) BY

Narshaxiy, Ibn Sam’aniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Zahiriddin Bobur kabi tarixiy shaxslar ham ana shu manbalar bilan bog‘liq ma’lumotlarga tayangan.

Al-Balazuriyning «Futuh al-buldon» asarida arablar tomonidan turli o‘lkalarning, jumladan, Movarounnahrning zabt etilishi haqida ma’lumot beriladi. Til uslubi an’anaviy tarixiy bayon uslubiga asoslangan, harbiy yurishlar va siyosiy voqealar tasvirlangan.

Ibn Xavqalning «Surat al-ard» asari geografik asar bo‘lib, Markaziy Osiyo shaharlari, yo‘llari va iqtisodiy hayoti haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Til uslubi arab geografik adabiyotiga xos ravishda sodda va tasviriy.

Ibn Xaldunning «Muqaddima» asari tarixshunoslik va ijtimoiy fanlar nazariyasida muhim ahamiyatga ega. Asarda tarixiy jarayonlarning qonuniyatlari, davlatlarning rivojlanishi va inqirozi haqida nazariy mulohazalar bayon etilgan.

Ibn Arabshohning «Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur» asarining birinchi jildi Sohibqiron Amir Temurning bolaligi, taxtga kelishi, u bunyod etgan qudratli saltanat, yurishlari va boshqa tarixiy voqealar bayon etilgan. Uning ikkinchi jildida esa Amir Temur vafotidan so‘ng ro‘y bergan tarixiy voqealar, toj-u taxt uchun bo‘lgan urushlar tasvirlangan. Muallifning asarda Amir Temu rva Temuriy hukmdorlar xususidagi fikr-mulohazalari ushbu davr forsiy va turkiy manbalaridan farqli bo‘lib, ularni qiyosiy o‘rganish bu davr to‘g‘risida xolis ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qilishi bilan e’tiborlidir.

FORSIY TILLARDA YOZILGAN MANBALAR

Firdavsiyning «Shohnoma» asari epik poema bo‘lib, Eron va Turon tarixi, qadimiy qahramonlar va sulolalar haqida bayon qiladi. Asarning tili yuksak poetik uslubda yozilgan bo‘lib, u Markaziy Osiyo xalqlari tarixi uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Bayhaqiyning «Tarixi Mas’udiy» asarida G‘aznaviylar sulolasi davridagi voqealar, jumladan, Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar yoritilgan. Til uslubi mukammal forsiy adabiy tilda ifoda etilgan.

Juvayniyning «Tarixi jahongusho» asari mog‘ullar istilosi va uning oqibatlari haqida yozilgan. Unda Markaziy Osiyodagi shaharlar va xalqlarning ahvoli haqida qimmatli ma’lumotlar bor.

Rashid ad-Dinning «Jome’ at-tavorix» asarida dunyo tarixi bilan birga Markaziy Osiyo xalqlari tarixi ham yoritilgan. Asar til uslubi ilmiy va xronologik tartibga asoslangan.

Hamdulloh Qazviniyning «Nuzhat al-qulub» asari geografik asar bo‘lib, Markaziy Osiyoning shaharlari, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida ma’lumot beradi. Til uslubi tasviriy va tavsifiy.

TURKIY TILLARDA YOZILGAN MANBALAR

(cc) BY

Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari turkiy tillar lug‘ati bo‘lib, XI asr turkiy xalqlarining tili, urf-odati va madaniyati haqida muhim ma’lumot beradi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida davlat boshqaruvi, axloq-odob va ijtimoiy munosabatlar haqida nazariy mulohazalar keltirilgan. Til uslubi o‘tkir va ta’limiy xarakterga ega.

Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida payg‘ambarlar va faylasuflar tarixi bayon qilingan. Navoiyning tili boy va uslubi o‘ziga xos uslubiy qiymatga ega.

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asari muallifning xotiralariga asoslangan asar bo‘lib, u Markaziy Osiyo va Hindiston tarixi uchun muhim manba hisoblanadi. Asar tilida turkiy va forsiy elementlar uyg‘unlashgan.

Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» asarida Shayboniylar sulolasi tarixi yoritilgan. Til uslubi rasmiy va tarixiy bayon shaklida bo‘lib, davlatchilik va siyosiy voqealar tasvirlangan.

TADQIQOT USLUBLARI

Turkiy tillarda yozilgan manbalarda arab va forsiy so‘zlar keng qo‘llanilgan. Davlat boshqaruviga oid «sulton», «amir», «vazir», «mulk» va boshqa ko‘plab atamalar arabiy manbadan kirgan. Xususan, arabiy so‘z va so‘z birikmalari, ba’zida so‘zboshilarning aksariyat qismi arab tilida yozilgan. Bunday xususiyat nafaqat tarixiy va adabiy asarlarda balki rasmiy hujjatlarda ko‘p uchraydi.

Turkiy tillardagi tarixiy asarlarning madaniy-maishiy sohalar tarixi yoritilgan qismlarida esa ko‘proq forsiy so‘zlar ishlatilgan. Shu jumladan, ularda forsiy izofa konstruksiyalari keng qo‘llanilganini kuzatish mumkin.

Solnomalarda rasmiy uslub ustun bo‘lsa, adabiy asarlarda tashbeh va istioralar (metfora) ko‘p qo‘llanilgan. Turkiy tilda yaratilgan asarlarning mashhur mualliflaridan biri Alisher Navoiy asarlarida ham, xususan, ularning nomlanishida forsiy va arabiy iboralar uyg‘unligi yaqqol seziladi.

Umuman olganda, turkiy tillardagi tarixiy manbalar lingviyatik tahlili, turkiy til forsiydan uslubiy ifodalarni, arabiydan esa terminologik qatlamni ko‘proq qabul qilganini kuzatish mumkin. Ya’ni, sharq tillaridagi tarixiy va adabiy manbalarning yaratilishida tillararo muloqotning yorqin namunasi namoyon bo‘ladi.

Mazkur qo‘lyozma manbalarning manbashunoslik tahlili esa asarning yaratilish tarixi, davriy xususiyatlari, ularning turli nusxalarini qiyosiy o‘rgansa, lingvistik tahlil uning fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini yoritadi. Bu ikki usul uyg‘un holda qo‘llanilganda to‘liq tarixiy asarlarning ilmiy tahlili batafsil amalga oshirilgan hisoblanadi.

TAHLIL NATIJALARI

(cc) BY

Sharq tillarida yaratilgan qo‘lyozma asarlar o‘z davrining jonli guvohidir. Mazkur qo‘lyozma asarlarning mualliflari siyosiy voqealar, hukmron sulolalari, davlat boshqaruvi tizimi, ijtimoiy munosabatlar va madaniy hayot haqidagi bebaho ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ularning mualliflari shaxsan o‘sha muhitda tarbiyalangan, o‘z davri siyosiy va ijtimoiy muhitining ishtirokchisi hamda kuzatuvchisi bo‘lgani sabab, yozib qoldirgan ma’lumotlari birlamchi manba sifatida e’tiborga molikdir. Shuningdek, ushbu manbalarning ahamiyati ko‘p tilli muhitda yaratilganligi bilan ham o‘ziga xosdir. Shu bilan birga tarixiy asarlarni tahlil etish zamonaviy tarixchi va manbashunos olimlardan tanqidiy xolis va tanqidiy yondashuvni talab etadi. Chunki turli davrlarda yaratilgan ushbu tarixiy manbalar mualliflari ham o‘z davri xususida ijobiy va salbiy xarakterdagi fikrlarga ega bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, tarixiy asarlarning aksariyat qismi davlat boshliqlari, hukmron sulola vakillari va yoki saroy ayonlari tomonidan maxsus topshiriqlar bilan yozilgan bo‘lib, ularda tarixiy jarayonlarni ijobiy va salbiy tomonlarini tasvirlashda burttirish va mubolag‘alarga yo‘l qo‘ygan holatlar uchraydi. Bu holatni aniqlash va ilmiy tahlil qilishda ularning turli nusxalari va yoki bir xil davrda yaratilgan tarixiy asarlarni qiyosiy o‘rganish muhimdir.

Buning uchun mazkur tarixiy qo‘lyozma asarlarni o‘rganayotgan va ilmiy doiraga olib kirish uchun tadqiqotlar olib borayotgan mutaxassis olimlarda bir qator tegishli bilimlarni egallashi talab etiladi. Xususan, tarixchi, manbashunos, tilshunos, san’atshunos va umuman tarixiy manbalar bilan ishlayotgan olimlar arabiy, forsiy va turkiy tillarni mukammal egallagan bo‘lishi, ularni xolis va ilmiy tahlil etish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi shart. Chunki, sharq tillarida yozilgan tarixiy asarlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularda tillararo ta’sir va madaniy aloqalar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, yuqorida ta’kidlaganimizdek, arab tili tarixiy manbalarda ko‘proq diniy va siyosiy terminologiya, forsiy asarlarda poetik uslub va tasviriylik, turkiy asarlarda esa xalqona va amaliy ifoda vositalari ustunlik qiladi. Bu holatlar sharq tillaridagi manbalarni o‘rganishda qiyosiy-manbashunoslik tahlil usulining ahamiyatini yanada oshiradi.

XULOSA

Sharq tillaridagi tarixiy manbalar, xususan, yuqorida tahlilga tortilgan Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga doir bir qator qo‘lyozma manbalarning til xususiyatlarini o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix va tarixiy manbashunoslik fanlari uchun ham ulkan ahamiyatga ega. Ular orqali tillarning ichki rivojlanish jarayoni, tillararo ta’sir va madaniy aloqalar tarixi haqida keng ma’lumot olish mumkin. Ular nafaqat tarixiy voqealarni yoritadi, balki davrning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-madaniy va mahalliy xalqlar folklori hamda til xususiyatlarini ham ochib beradi. Shuning uchun ham bu asarlarni tilshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan chuqur

(cc) BY

o‘rganish, ularni zamonaviy ilmiy tahlillar asosida tadqiq etish mutaxassis olimlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. - Москва, 1963.

2. Эгамбердиева Д. Чиғатой тили ва адабиёти. - Тошкент: Фан, 2008.

3. Бобур Заҳириддин. Бобурнома. - Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1989.

4. Навоий А. Мажолис ун-нафоис. - Тошкент, 1997.

5. DeWeese, Devin. Islamization and Native Religion in the Golden Horde. - Philadelphia: Penn Press, 1994.

6. Doerfer, Gerhard. Türkische und Mongolische Elemente im Neupersischen. - Wiesbaden, 1963.

7. Эгамназаров Қ. Манбашунослик асослари. - Тошкент: Университет, 2015.

8. Barthold, W. Turkestan Down to the Mongol Invasion. - London, 1928.

9. Eckmann, J. Chagatay Manual. - Bloomington: Indiana University, 1966.

10. Аҳмедов Б. Ўрта асрлар тарихчилари ва тарихшунослиги. - Тошкент: Фан, 1991.

11. Subtelny, M. Timurids in Transition. - Leiden: Brill, 2007.

12. Schimmel, A. Islamic Calligraphy. - Leiden, 1970.

13. Allworth, E. The Modern Uzbeks. - Stanford, 1990.

14. Хайдарбеков Ш. Туркий тиллар тарихи. - Тошкент, 2010.

15. Boyle, J.A. The Cambridge History of Iran, Vol. 5. - Cambridge, 1968.

16. Togan, Zeki Velidi. Bugünkü Türkili. - Istanbul, 1947.

17. Golden, P.B. An Introduction to the History of the Turkic Peoples. - Wiesbaden, 1992.

18. Бобоева М. Форсий-туркий адабий алоқалар. - Тошкент, 2011.

19. Lewis, G. The Turkish Language Reform: A Catastrophic Success. - Oxford, 1999.

20. Öztürk, M. Eski Türk Yazıtları. - Ankara, 2012.

(cc) BY